
TUMAN HOKIMI "XURRAMOBOD" MFYDAGI JARAYONLAR BILAN TANISHDI

Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov mahallalarda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, aholi turmush sharoitlari bilan tanishish maqsadida bugun "Xurramobod" mahallasida bo'lib, mahallada amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalar, "Sayxunobod tajribasi" misolida qilingan ishlar bilan tanishdi.

"Xurramobod" mahallasida bo'lgan tuman hokimi mahalladagi "yettilik" - mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori, ijtimoiy xizmat xodimi, soliq inspeksiyai xodimining faoliyatini tahlil qildi.

Tuman hokimi mazkur mahallada yashovchi fuqarolar oilasi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan daromadni qanday topayotganini xonadonbay o'rgandi.

Tomorqachilik yunalishi bo'yicha xonadon egalari bilan suhbat olib borgan tuman hokimi ularning daromadni oshirish uchun eksportbop mahsulotlar yetishtirish yuzasidan xonadon egalari kerakli maslahatlarni berdi.

Tashrif davomida shuningdek, tuman hokimi tadbirkorlar bilan suhbatlashib, ularning yangi loyihalari bilan tanishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2024-07-29 14:45:20